

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

QOVOQ NAV VA DURAGAYLARINI O‘SISHI, PALAK SHAKLLANISHI, MAHSULDORLIK KO‘RSATKICHLARI VA HOSILDORLIGI BO‘YICHA BAHOLASH

T.E.Ostonaqulov, q.-x.f.d., QarshiDU professori,
P.X.Chorshanbiyev, TDMAU, tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada qovoq nav va duragaylari to‘plami Janubiy hudud – Surxondaryo viloyati sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida o‘sishi, rivojlanishi, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari va hosildorligi bo‘yicha baholash natijalari keltirilgan. Olingan ma’lumotlar asosida qovoqning Tikva jemchujnaya, Atlas, Japan 10gr, Noaniq1, Oshin kadi, Shirintoy, Stofuntovaya navlari ajratildi.

Kalit so‘zlar: qovoq, nav, duragay, o‘suv davri, palak, ildiz vazni, hosildorlik.

Аннотация. В статье изложены результаты оценки коллекции сортов и гибридов тыквы в условиях орошаемых светло-сероземных почв южного региона Сурхандарьинской области по росту, развитию, показатели продуктивности и урожайности. На основе полученных данных выделены сорта тыквы - Tikva jemchujnaya, Atlas, Japan 10gr, Noaniq1, Oshin kadi, Shirintoy, Stofuntovaya.

Ключевые слова: тыква, сорт, гибрид, вегетационный период, ботвы, масса корней, урожайность.

Abstract. The article presents the results of an evaluation of a collection of pumpkin varieties and hybrids under irrigated light sierozem soils in the southern region of Surkhandarya province, based on growth, development, productivity indicators, and yield. Based on the obtained data, the following pumpkin varieties were identified: Tikva Jemchuzhnaya, Atlas, Japan 10gr, Noaniq 1, Oshin Kadi, Shirintoy, and Stofuntovaya.

Keywords: pumpkin, variety, hybrid, vegetation period, foliage, root mass, yield.

Kirish. Poliz mevalari inson organizmida nisbatan oson hazm bo‘ladigan, shifobaxsh xususiyatga ega mahsulot bo‘lib, tarkibida pektin moddalari, kletchatka va gemitsellyuloza, glyukoza, fruktoza, saxaroza, A, C, E, B guruh vitaminlar, mineral elementlar - Cu, Sa, K, Mn, Fe, Zn, antioksidantlar saqlaydi. Ayniqsa, qovoq mevasi vitaminlar manbai, qish noni deb yuritiladi. U ko‘rish qobiliyatining yomonlashishiga qarshi kurashadi, oshqozon-ichak trakti, bo‘yrak faoliyatini yaxshilaydi, yurak-qon

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

tomirlar tizimi salomatligini mustahkamlaydi, antioksidantlar ko‘p saqlaydi, erta qarishning oldini oladi, immunitetni oshiradi [10].

Qovoq dorivor mahsulotlar ichida birinchi o‘ringa loyiq bo‘lib, uning mevasi tabobatda astma, kamqonlik, varikoz tomirlari, shamollashni, prostata bezlarini davolashda, urug‘i qaynatmasi, yog‘i gijja haydaydigan dori tariqasida ishlatiladi [6].

O‘zbekiston sog‘liqni saqlash vazirligining tavsiyasiga ko‘ra, har bir kishi yil davomida sog‘lom va normal mehnat faoliyati ko‘rsatishi uchun 98 kg, jumladan 36,5 kg tarvuz, 54.5 kg qovun va 7 kg qovoq yoki har kuni 270 g poliz mevalari, shu jumladan 100 g tarvuz, 150 g qovun va 20 g qovoq iste‘mol qilishini tavsiya etgan [8,9].

Qovoq asosan qaynatib, dimlab va yopib pishirilgan holda iste‘mol qilinadi va 30 dan ziyod taomlar tayyorlanadi. Qovoq ko‘pgina navlari may oyigacha odatdagi sharoitda saqlanadi. Ba‘zi (Palov kadu) navlari qishda 16-18⁰C haroratda, yozda 32⁰C gacha bo‘lgan haroratda 2 yilgacha saqlanadi [7].

Har bir tuproq va iqlim sharoitida qovoq ekinidan barqaror ertagi yoki uzoq saqlanadigan mo‘l va sifatli hosil olish ko‘p jihatdan moslanuvchan navlarni tanlash, ularning urug‘ini ekisholdi tayyorlash, qulay ekish muddati, o‘g‘itlash, sug‘orish usuli va rejimi kabi agrotexnologik tadbirlarni ishlab chiqishga bog‘liq. Bu yo‘nalishda respublikamiz sharoitida tadqiqotlar yetarli darajada o‘tkazilmagan. Mamlakatimizda sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida qovoq turli navlar to‘plamini har tomonlama baholash, ulardan moslanuvchanlarini ajratib turli agrotexnologik tadbirlarda o‘stirib, o‘simlik shakllanishi, hosil miqdori va sifati, tovar ko‘rsatkichlariga ta‘sirini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi - Respublikamizning janubiy hududi Surxondaryo viloyati sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida qovoq nav-duragaylarini har tomonlama baholab, istiqbolli, moslanuvchanlarini ajratishdan iborat.

Tadqiqotning materiallari va metodlari. Dala tajribalari Termiz tumanida joylashgan Surxondaryo ingichkatolali paxtachilik ilmiy tadqiqot institutining tajriba xo‘jaligi sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida o‘tkazildi. Tajriba

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

o‘tkazilgan och tusli bo‘z tuproqlarda yer osti suvlari 1,5-2,5 metr chuqurlikda joylashgan. Tuproqni mexanik tarkibi o‘rta qumoq. Tajriba dalasi haydalma (0-30 sm) va haydav osti (31-50 sm) qatlamlarida gumus miqdori 0,895-0,700%, suvli so‘rim $pH=7,7$, tuproq hajm massasi 1,35-1,50 g/sm³, solishtirma massasi 2,5-2,6 g/sm³ ni, yalpi azot 0,084-0,069%, umumiy fosfor 0,140-0,114%, kaliy 2,10%, nitrat shaklidagi azot miqdori 18,5-12,5 mg/kg, ammoniy shaklidagi azot miqdori 3,04-1,5 mg/kg, harakatchan fosfor 27,8-13,95 mg/kg, almashinuvchi kaliy 199-165 mg/kg ni tashkil etdi.

Tadqiqot bo‘yicha qovoq ekinining 30 ta nav-duragaylar to‘plamini qayd etilgan sharoitda o‘sishi, rivojlanishi, tupning shakllanishi, mahsuldorligi va tovar hosildorligi bo‘yicha har tomonlama baholanib, istiqbolli moslanuvchanlari ajratildi. Ekish (280+70sm):2x70 sm sxemada, 5-6 sm chuqurlikda amalga oshirildi. Delyanka maydoni 35 m², takrorlar soni 3 ta bo‘ldi. Nav namunalari soni 30 ta x35 m²= 1050 m², takrorlar 3 ta 1050 m²x3=3150 m².

Dala tajribalarini o‘tkazish, ekish, ekinni parvarish qilish, hosilni yig‘ish, hisoblash va analizlar umumiy qabul qilingan uslub hamda tavsiyalar asosida olib borildi [1,2,3,4,5,11].

Tadqiqot natijalari va uni muhokamasi. Qovoq nav va duragaylar to‘plami o‘simlikning o‘sishi, rivojlanishi, tupning shakllanishi va hosildorligi bo‘yicha sezilarli farqlangani aniqlandi (1-jadval).

Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, o‘rganilgan qovoq nav va duragaylarining o‘suv davri davomiyligi 106 kundan 136 kungachani tashkil etdi. Nisbatan tezpushar (o‘suv davri 106 kun) – PlutoF1, Japan 10gr, Ferrari F1, Waltham butternut, Pioneer, Noaniq1 nav-duragaylarda, eng kechpushar (136 kun) bo‘lib, Ispanskaya 73(st.), Ashkadi, Katta habba kadi, Stofuntovaya, Rossiyanika, Provanskaya navlari hisoblandi. Boshqa nav-duragaylarda esa o‘suv davri 111-131 kunni tashkil etdi.

Palak poyasining uzunligi o‘rganilgan nav-duragaylarda 47 sm (Xolva kadi) dan 453 sm. gacha (Oshin kadi) o‘zgardi. Eng uzun poyali o‘simliklar – Kichkintoy (385sm), Vitaminnaya (308 sm), Oshin kadi (453sm), Palov kadu 268 (269sm), Tikva

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

jemchujnaya (273sm), Noaniq 4 (400sm), Ashkadi (253sm), navlari bo‘ldi. Palakdagi yon shoxlar soni nav-duragaylar bo‘yicha 3-14 donagacha bo‘ldi.

Barglanish – asosiy morfologik belgi bo‘lib, sinalgan nav-duragaylar to‘plamida 45 donadan 436 donagacha farqlanib, kuchli barglanish (400 donadan ziyod) Waltham butternut, Noaniq 1, Kichkintoy, Oshin kadi, Tikva atlasniy, Tikva jemchujnaya, Tikva gitara, Shirintoy, Noaniq 3, Noaniq 4, Ispanskaya 73, Ashkadi, Stofuntovaya, Rossiyanka navlarida qayd etildi.

Tuproq 0-25sm qatlamidagi bir tup palak ildiz massasi 10-65 grammni tashkil qildi va nisbatan baquvvat ildiz massasi (61-65 g) Vitaminnaya, Oshin kadi, Tikva atlasniy, Tikva gitara, Noaniq4, Ispanskaya 73, Katta habba kadi, Stofuntovaya, Rossiyanka, Provanskaya navlarida aniqlandi.

Tupning palak vazni 16-449 g ni tashkil etib, baquvvat palaklar (400 g va ziyod) Noaniq 1, Oshin kadi, Noaniq 2, Tikva atlasniy, Noaniq 3, Noaniq 4, Provanskaya navlarida kuzatildi.

Tupdagi mevalar soni 1,3-4,2 donani, mevalar vazni esa 3,0-7,2 kg ni tashkil etdi. Eng yuqori mahsuldorlik (4,1-7,2 kg/tupda) Tikva jemchujnaya, Atlas, Japan 10gr, Waltham butternut, Noaniq 1, Vitaminnaya, Oshin kadi, Tikva atlasniy, Shirintoy, Katta habba kadi, Stofuntovaya navlarida kuzatildi.

O‘rganilgan qovoq nav va duragaylari hosildorligi aniqlanganda, gektaridan 19,6 tonnadan (Xushtam) 58,8 tonnagacha (Tikva jemchujnaya) tashkil etdi. Eng yuqori hosildorlik (36,7-58,8 t/ga) Tikva jemchujnaya, Atlas, Japan 10gr, Noaniq 1, Oshin kadi, Shirintoy, Stofuntovaya navlaridan olindi.

Xulosa. Respublikamiz janubiy Surxondaryo viloyati sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida o‘rganilgan qovoq nav va duragaylari o‘sishi, rivojlanishi, tupda ildiz, palak va barg shakllanishi, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha keskin farqlanib, eng yuqori hosildorlik (36,7-58,8 t/ga) Tikva jemchujnaya, Atlas, Japan 10gr, Noaniq 1, Oshin kadi, Shirintoy, Stofuntovaya navlarida qayd etildi.

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

1-jadval

Qovoq nav va duragaylari to‘plamining o‘sishi, rivojlanishi, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari va hosildorligi, 2025 yil

№	Nav,duragay nomi va kелиб чиқиши	O‘svu davri, kun	Palak uzunligi,sm	Yon shoxlar soni	Palakdagi barg soni, dona	Tupda- gi ildiz vazni, gr	Tupdagi palak vazni,gr	Tupdagi mevalar soni	Tupdagi mevalar vazni,kg	Hosildorlik, t/ga
1.	Pluto F1 (JP)	106	198	9	390	58	322	4,0	4,4	35,9
2.	Japan 10gr (JP)	106	179	9	358	56	322	3,0	4,8	39,2
3.	FerrariF1(JK)	106	198	9	370	56	318	3,5	3,9	31,0
4.	Waltham butternut (USA)	106	185	9	400	57	324	4,0	4,4	35,9
5.	Pioneer (JP)	106	162	5	392	53	378	3,0	3,6	29,4
6.	Noaniq 1 (RU)	106	198	9	436	53	409	4,2	4,7	37,5
7.	Kichkintoy (UZ) –St.	111	385	9	410	53	326	3,0	3,3	27,0
8.	Atlas (TR)	111	218	13	385	56	332	3,0	6,0	49,0
9.	Xushtam (Samarqand)	111	175	4	375	55	324	2,0	2,5	19,6
10.	Xolva kadi (Termiz)	111	47	5	45	10	16	2,0	4,0	32,6
11.	Sapcha kadi (Angor)	111	209	11	369	56	334	3,0	3,9	31,8
12.	Vitaminnaya (RU)	111	308	13	378	61	395	2,0	4,4	35,9
13.	Oshin kadi (Termiz)	111	453	6	420	62	406	2,0	4,6	37,5
14.	Yaponskaya (JP)	111	227	6,8	395	61	391	1,3	3,0	27,7
15.	Palov kadu 268 (UZ,1950) –St	116	269	14	392	60	332	1,4	3,2	29,4
16.	Balonchik (Jizzax)	116	246	12	390	59	334	1,4	3,1	29,4
17.	Olga (RU)	116	216	11	382	60	384	1,5	3,5	31,8
18.	Noaniq 2 (RU)	116	160	3	393	59	434	3,0	3,0	25,5
19.	Tikva atlasniy (TR)	121	160	4	402	62	409	2,0	4,4	35,9
20.	Tikva jemchujnaya (TR)	121	273	13	408	52	386	2,0	7,2	58,8
21.	Tikva gitara (TR)	121	230	13	401	61	391	2,0	4,0	32,6
22.	Shirintoy (UZ, 2006) –St.	131	196	5	428	62	394	2,0	4,6	37,5
23.	Noaniq 3 (Termiz)	131	211	10	415	60	449	2,0	4,4	35,9
24.	Noaniq 4 (Termiz)	131	400	10	418	61	432	2,0	4,1	34,3
25.	Ispankaya 73 (UZ,1949) –St.	136	228	10	405	62	335	1,5	4,3	34,3
26.	Ashkadi (Termiz)	136	253	12	400	61	332	1,5	4,2	34,3
27.	Katta habba kadi (Termiz)	136	244	11	398	65	340	1,5	4,5	35,1
28.	Stofuntovaya (UZ,1974) –St	136	226	10	415	61	351	1,6	4,8	36,7
29.	Rossiyanka (RU)	136	226	10	404	61	347	3,0	3,0	25,5
30.	Provanskaya (RU)	136	187	9	366	61	412	1,5	4,3	34,3

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azimov B.J., Azimov B.B.va boshqalar. Professor R.A.Nizomov umumiy tahriri ostida. Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarida tajribalar o‘tkazish uslubi. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent.Baktria press.2023.-B.264.
2. Litvinov S.C. Metodika polevogo opita v ovoshevodstve. Moskva. GNU VNIO. 2011. -C.648.
3. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat reestri. Toshkent.2025.-B.98
4. V.I. Zuev, A.F.Abdullayev, Sabzavot ekinlari va ularni yetishtirish texnologiyasi. Toshkent. 1997.-B.301.
5. Ostonaqulov T.E. Seleksiya va urug‘chilik. - Toshkent. Istiqlol.2002 (2017).- B.272.
6. T.E.Ostonaqulov, V.I.Zuev, O.Q. Qodirxo‘jayev. Mevachilik va sabzavotchilik (Sabzavotchilik). Toshkent.2019.-B.520.
7. T.E.Ostonaqulov, X.Ch.Bo‘riyev, X.S.Amirov. Polizchilik. Darslik. Toshkent. 2023. -B.252.
8. Smith, J. (2020). “Seed Germination and Growth Analysis”.
9. FAO. (2019). “Cucurbita Species: Cultivation and Yield”.
- 10.R.G‘. Toramatov, A.J.Shokirov, I.D.Abdurashidov, 2023.
- 11.Qishloq xo‘jalik ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo‘yicha namunaviy texnologik kartalar 2022-2026 yillar uchun. 3-qism. Toshkent. 2022. - B.193.